



Ogahiyning “Zubdat ut tavorix” asarining adabiyotshunoslikda o‘rganilishi

Urganch davlat pedagogika instituti Filologiya fakulteti O‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida
o‘qituvchisi **Rajabboyeva Niyozjon**
rajabboyevaniyozjon@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada Muhammad Rizo Ogahiyning “Zubdat ut tavorix” asari va uning o‘zbek adabiyotshunosligida o‘rganilishi haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: tarixnavislik, “Zubdat ut tavorix”, tarixiy manba,

XIX asr o‘zbek adabiyoti, tarixnavisligi va tarjima maktabining yirik namoyandasi Muhammad Rizo Ogahiy qalamiga mansub "Zubdat ut-tavorix" (Tarixlar sarasi / qaymog‘i) asari uzoq vaqt davomida faqat sof tarixiy manba (Xiva xonligining 1843–1846-yillardagi ijtimoiy-siyosiy hayoti solnomasi) sifatida baholanib kelindi.

Biroq zamonaviy adabiyotshunoslik, matnshunoslik va manbashunoslik fanlari uyg‘unlashgan bugungi davrda ushbu asar badiiy-tarixiy nasrning yorqin namunasi hamda boy adabiy manba sifatida tubdan qayta o‘rganilmoqda. Ushbu asarning adabiyotshunoslikda o‘rganilish yo‘nalishlari va uning badiiy qimmatini tahlil qilingan.

Ogahiy tarixiy asarlarini, xususan "Zubdat ut-tavorix"ni adabiyotshunoslik obyekti sifatida o‘rganish ishlari XX asr boshlaridan poydevor topgan. Ogahiy merosini o‘rganishda dastlab Miyon Buzruk Solihov o‘zining "O‘zbek tarixiga oid to‘rt muhim kitob" (1927) maqolasi orqali asarni ilm-fanga tanishtirgan. Keyinchalik akademik V.V. Bartold, rus sharqshunoslari, o‘zbek adabiyotshunoslaridan V. Abdullayev, G‘. Karimov, S. Dolimov hamda nufuzli matnshunos olim N. Komilovlar asarning til xususiyatlari va undagi janriy rang-baranglikka e‘tibor qaratishdi. Bugungi o‘zbek adabiyotshunosligida "Zubdat ut-tavorix"ni eng tizimli va jiddiy tadqiq etgan olim Nurboy Jabborov hisoblanadi. U asarning jahon fondlaridagi (Sankt-Peterburg, Toshkent) qo‘lyozma nusxalarini qiyosiy o‘rganib, uning mukammal ilmiy-tanqidiy matnini nashrga tayyorlagan va asarning sof adabiy-badiiy qimmatini asoslab bergan.

Adabiyotshunoslar "Zubdat ut-tavorix"ni shunchaki quruq faktlar yig‘indisi emas, balki saj‘ (nasriy qofiya) va badiiy san‘atlar bilan bezatilgan yuksak proza (nasr) namunasi deb baholaydilar. Ogahiy voqealarni bayon qilishda Alisher Navoiy va xorazmlik salafлари an‘anasini davom ettirib, voqealar xronologiyasini (janglar, elchilar qabuli, binolar qurilishi) yuksak pafos, emotsionallik va poetik til bilan tasvirlaydi.

Unda tabiat tasviri (peyzaj), shaxslar portreti va xarakterlar badiiy so‘z vositasida chizib beriladi. Bu esa adabiyotshunoslikda "badiiy-tarixiy sintez" deb o‘rganiladi.

Asar tarkibidagi she‘riy janrlar tahlili

"Zubdat ut-tavorix" o‘z ichiga juda katta hajmdagi she‘riy merosni qamrab olgan. Adabiyotshunos olim N. Jabborovning aniqlashicha, asar matniga jami 1176 bayt (2352 misra) she‘r singdirib yuborilgan. Adabiyotshunoslik ushbu she‘rlarni janr xususiyatlari bo‘yicha quyidagicha tabaqalab o‘rganadi:



She'riy janr	Miqdori (Asar ichida)	Adabiyotshunoslikdagi talqini
Masnaviy	70 ta	Asosiy voqealar, xonning yurishlari va sarguzashtlarini lirik hikoya qilish uchun xizmat qilgan.
Qasida	6 ta	Saroy adabiyoti an'analarini o'rganishda hamda Ogahiyning madh janridagi mahoratini aniqlashda muhim manba.
Qit'a va g'azal	14 ta	Shoirning falsafiy va lirik kechinmalarini nasriy matn orasida ifodalash usuli.
Ta'rix	4 ta	Muayyan tarixiy binoning bitishi yoki voqeani abjad hisobida va poetik tarzda muhrlash mahorati.
Ruboiy va fard	13 ta	Voqealardan chiqarilgan yakuniy falsafiy-didaktik (tarbiyaviy) xulosalar.

Ad
Mi
Mi

Bu she'rlarning aksariyati Ogahiyning asosiy lirik to'plami — "Ta'viz ul-oshiqin" devoniga kirmay qolgan bo'lib, ular faqat "Zubdat ut-tavorix" orqaligina adabiyotshunoslikka ma'lum bo'ldi.

“Muhammad Rizo Ogahiy “Zubdatu-t-tavorix”da arab va fors tillari imkoniyatidan benihoya samarali foydalangan. Hatto arab va fors lug'atlarida “redko”(“noyob”) deya izoh



berilgan soʻzlardan ham muallif samarali foydalangan. Tabiiyki, oʻsha davr oʻquvchisi uchun buni tushunish qiyin boʻlmagan. Biroq bugungi kitobxonning ularni anglashi oson emas”, -deya yozadi N.Jabborov oʻz izohida. Shuning uchun, olti yuzga yaqin soʻzlarni oʻz ichiga olgan lugʻat tuzilib, asar matniga ilova qilingan. Lugʻatni tuzishda X.K.Baranovning “Arabsko-russkiy slovar”, Y.A.Rubinchik tahriri ostida chop etilgan ikki jildlik “Persidsko-russkiy slovar”, Muhammad Gʻiyosiddinning “Gʻiyos ul-lugʻot”, Porso Shamsiyev va S. Ibrohimov tuzgan “Navoiy asarlari lugʻati”, ikki jildlik “Farangi zaboni tojiki” singari manbalardan foydalanilgan.

"Zubdat ut-tavorix" — shunchaki Rahimqulixon davri solnomasi emas, balki XIX asr Xorazm adabiy muhiti, til xususiyatlari va oʻzbek badiiy nasri taraqqiyotini koʻrsatuvchi monumental adabiy obidadir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jabborov N. Oʻzbek badiiy-tarixiy nasrining sara namunasi / Ogahiy, Muhammad Rizo. Zubdatu-t-tavorix. – T.: Oʻzbekiston, 2013. – B. 4.
2. Огаҳий, Муҳаммад Ризо. Таъвизу-л-ошиқин. ЎзР ФА ШИ, Қўлёзма, инв. № 938.
3. Огаҳий, Муҳаммад Ризо. Зубдату-т-таворих. – Т.: Ўзбекистон, 2013.